

# QQS summasini qaytarish tartibi

01 | 

Chet davlat fuqarosi «Soliq» mobil ilovasini yuklab oladi. Bunda QQS summasi qaytarilishi lozim bo`lgan xalqaro bank kartasi raqami yoki bank hisobvarag`i kiritiladi

02 | 

Chet davlat fuqarosi xaridlarni amalga oshiradi

03 | 

Chet davlat fuqarosi xarid cheklarini mobil ilovada ro`yxatdan o`tkazadi (skannerlaydi)

04 | 

Chet davlat fuqarosi operatorning xalqaro aeroportdagi xizmat ko`rsatish shahobchasiga murojaat qiladi

05 | 

Chet davlat fuqarosi operatorga bortga chiqish taloni hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko`rsatadi

06 | 

Operator xarid cheklarida ko`rsatilgan tovarlar chet el fuqarosi yonida ekanligi, iste` mol qilinmaganligi, asl o`rami mavjudligini ko`zdan kechiradi

07 | 

Operator chet davlat fuqarosi bilan qaydnomani rasmiylashtiradi

08 | 

Operator O`zbekiston hududida xarid qilingan tovarlar Respublika hududidan olib chiqib ketilayotganligini tasdiqlaydi hamda tasdiqni “Tax free” AATga kiritadi

09 | 

Operator tasdiqlangan cheklar asosida qaytariladigan QQS summalari bo`yicha buyurtmani Moliya vazirligiga taqdim etadi (har oy, keyingi oyning 25-sanasiga qadar)

10 | 

Moliya vazirligi operatorning hisobvarag`iga mablag`larni o`tkazadi (bir ish kunida)

11 | 

Operator QQS summasini qaytarib olish huquqiga ega bo`lgan chet davlat fuqarolarining reestrlarini vakolatli bankka taqdim etadi (har oyning 25-sanasidan keyin)

12 | 

Vakolatli bank QQS summasini chet davlat fuqarosining xalqaro bank hisobvarag`iga o`tkazib beradi (bir ish kunida)